

## **KONSTITUTSIYA– INSON, JAMIYAT VA DAVLAT FAOLIYATINING HUQUQIY MEZONI.**

*Solieva Hilolaxon Maxamadmusaevna*

*Andijon viloyat yuridik texnikumi mutaxassislik fani o'qituvchisi 3-darajali yurist*

*[solievahilola78@gmail.com](mailto:solievahilola78@gmail.com)*

*Annotasiya: Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni, inson, jamiyat va davlat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy xujjatdir. Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat deb e'tirof etiladi. Konstitutsiya fuqoro, jamiyat va davlat hokimiyati o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi o'ziga xos ijtimoiy shartnomadir.*

*Kalit so'zlar: Konstitutsiya, huquq, fuqarolar, jamiyat, inson huquqlari.*

Har bir mamlakatlarning ichki boshqaruvi va mustaqilligi, suvereniteti uning konstitutsiyasi vositasida qonunlashtiriladi. Bu esa davlat hokimiyatining konstitutsiya bilan cheklanganligini, tartibga solinishini ham anglatadi. Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat deb e'tirof etiladi. Konstitutsiya fuqoro, jamiyat va davlat hokimiyati o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi o'ziga xos ijtimoiy shartnomadir. Konstitutsiyaviy huquqlar shaxs va davlatning o'zaro munosabatlari qanday shakllanishi lozimligi va bu inson hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunib olishiga yordam beradi. Shuningdek, konstitutsiyaviy davlatda hokimiyatning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi konstitutsiyada mustahkamlab qo'yiladi. Konstitutsiya inson va fuqoroning shu hokimiyat tomonidan kafolatlangan huquqlarini mustahkamlaydi va ana shu huquqlarga mutonosib tarzda davlat hokimiyatini cheklaydi. Boshqacha qilib aytganda, Konstitutsiya-davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishining huquqiy rasmiylashtirilishi bo'lib, bu hokimiyatning fuqorolik jamiyati boshqa subyektlari bilan

munosabatlarini tartibga soladi. Shu bilan birga konstitutsiya va huquq uyg'unlashib jamiyat hayotining turli soxalarida rivojlanish hamda ularga bo'lgan talab va takliflar yuzasidan aloxida ko'rib chiqiladi va ularning ijtimoiy hayotda qay darajada o'sayotganini yaqqol namoyon qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, har bir soxada huquqiy ko'nikma va huquqiy bilim bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir inson oz huquqlari, burchlari hamda erkinliklari asosida o'zlarini mustaqil his eta olishadi bu esa ijtimoiy faoliyatida muhim o'rin egallab aloxida e'tiborga loyiq hisoblanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar doirasida, qo'llanilish tarzi hech qanday demokratik davlatlardan kam emas va belgilangan qoidalari xalqaro hujjat normalariga va ularda belgilangan talablarga mosdir. O'zbekiston fuqarolari uchun belgilangan ayrim iqtisodiy huquqlar, O'zbekistonning demokratik yo'ldan borayotligini jahon tajribasiga tayanish, bozor munosabatlarga asoslangan jamiyat qurish maqsadining haqiqiy isbotini ko'rsatadi. Endilikda huquqqa oid jamiyat hayotidagi turli soxalarda yuzagan kelayotgan yangi ko'nikmalar oldingi yillardan ko'ra ancha takomillashgan. Huquq negiziga kelsak, huquq-davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umummajburiy ijtimoiy normalar tizimi. U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi. Huquq davlat bo'lib uyishgan jamiyatda paydo bo'ladi va mulkchilik munosabatlarini, xo'jalik aloqalari mexanizimini mustahkamlaydi, mehnat va uning mahsulotlarini jamiyat a'zolarini o'rtasida muayyan o'lchov va shakllarda taqsimlab turuvchi vazifasini o'taydi. Bundan ko'rinib turibdiki, huquq har bir soxada o'ziga xos mavqeda o'rin egallagan ya'ni shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil shakllariga o'z ta'sirini o'tqaza oladi. Shuningdek, davlat boshqaruv organlari shakllanishi, tartibi hamda faoliyatini belgilab beradi, nizolarni qay yo'sinda hal qilish kerakligini va mavjud ijtimoiy munosabatlarni buzishga qarshi kurash choralarini ta'minlaydi. Huquq jamiyat hayotining turli sohalari-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohaga, madaniy ma'naviy munosabatlarga ta'sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. Yuridik nuqtai nazardan bu funksiyalarni ikki turga:

**Regulyativ** (tartibga soluvchi) va **Negativ** (qo'riqlovchi) funksiyalarga ajratish mumkin. Huquqning regulyativ jamiyat a'zolari yurish-turishi va xulq-atvorining ijobiy, barchaga maqbul qoidalarini o'rnatishdan, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy asosga qo'yishdan, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni uyg'unlashtirish va barqarorlashtirishdan iborat. Huquqning negativ funksiyasi uning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan huquqiy ta'sir etish yo'nalishi bo'lib, u umumiy ahamiyatga molik iqtisodiy, siyosiy, ma'vaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxlsizligini ta'minlashga va shu bilan birga jamiyatga yot, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi. Huquqning bu funksiyasiga xos xususiyatlar uni davlatning huquqni muhofaza etish faoliyati bilan qiyoslaganda aniq namoyon bo'ladi. Tegishli davlat idoralari huquq sohiblari tomonidan qonun talablariga qat'iy bajarilishini ta'minlaydi, jamiyatda qonuniylik muhitini vujudga keltiradi. Bu ish huquq buzilishlari faktini aniqlash, ularni tergov qilish va aybdorlarni yuridik javobgarlikka tortish bilan ta'minlanadi. Huquqning nazariy masalalarini G'arbda, jumladan Yevropadagi ijtimoiy soha olimlari, ayniqsa huquqshunoslari teran va izchil yoritib kelmoqdalar. Mustaqillik tufayli O'zbekistonda ham bu boradagi urinishlar va sa'y-harakatlar izlanish va tadqiqot ishlari sezilarli darajada kuchaydi. O'zbek huquqshunslari fani vujudga kelishi bilan o'z huquqni jamiyatdagi sohalar bilan uzviy bog'liqligi turli fanlarda muayyan tarzda o'rgatilib kelinmoqda. Huquq namoyondalari milliy davlatchilik tarixini, huquq va davlat umumnazariy masalalarini o'rganish borasida milliy qadriyatlarni, ilmiy merosni zamonaviy umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga harakat qilib kelmoqdalar. Huquqning jamiyat hayotining turli sohalaridagi bu o'sish reytingi ancha ilgari bormoqdadir. Qonun har bir davlatning harakatlantiruvchi kuchi, jamiyat hayotining turli sohalarida maqsadli islohotlarni amalga oshirish poydevori bo'lib xizmat qiladi. Har bir mamlakat huquqiy axborot tarqatish orqali aholining huquqiy savodxonligini oshirish, norma ijodkorligi sohasida o'z tajribasiga ega. Tahlil qilish, o'rganish va ushbu tajribalar bilan tanishish esa o'z navbatida mamlakatlar norma ijodkorligi faoliyatiga eng samarali va asl mexanizmlarni tatbiq qilish imkonini yaratadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, "Tashkent Law Spring" II Xalqaro huquqiy

forumining sessiyalaridan biri huquqiy axborotni tarqatish sohasidagi muammolarni tahlil qilish va rivojlanish istiqbollarini o'rganish masalalariga bag'ishlangan. Sessiya doirasida quyidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish rejalashtirilgan:

- huquq sohasini raqamlashtirish jarayonida huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanish;
- davlat organlarida axborot ochiqligini ta'minlashning samarali vositalari;
- davlat axborot xizmatlaridan universal foydalanishni ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari;
- huquqiy axborotni tarqatish, mazkur sohada tajriba almashish va xorijiy davlatlarning tegishli tashkilotlari bilan bu borada hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida xalqaro hamjamiyatni xabardor qilish masalalari.

Bugungi kunda yagona davlat huquqiy siyosatini, jumladan norma ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatish borasida adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish, shuningdek, sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bosqichma bosqich isloh qilinmoqda.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri - bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi printsiplial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi

printsipiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy printsiplari masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy printsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-Adolat-2023
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
3. Husanov O.T. "Konstitutsiyaviy huquq" darslik.